



**Oliy ta'lim tashkilotlari talabalari o'rtasida giyohvandlikka qarshi kurashish
hamda sog'lom turmush tarzini targ'ib etish yo'nalishida o'tkaziladigan
"Yoshlar – giyohvandlikka qarshimiz!" respublika ko'rik-tanlovi
NIZOMI**

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom oliy ta'lim tashkilotlari talabalari o'rtasida giyohvandlikka qarshi kurashish hamda sog'lom turmush tarzini targ'ib etish yo'nalishida o'tkaziladigan **"Yoshlar – giyohvandlikka qarshimiz!" respublika ko'rik-tanlovi** (keyingi o'rinlarda – Ko'rik-tanlov)ni tashkil etish va o'tkazish tartibini belgilaydi.

2. Ko'rik-tanlovda davlat, nodavlat hamda xorijiy oliy ta'lim tashkilotlarining bakalavriat bosqichi talabalari ishtirok etishlari mumkin.

II. Ko'rik-tanlovning maqsadi va vazifalari

3. **Ko'rik-tanlovning asosiy maqsadi** – talaba-yoshlarning giyohvandlik, psixotrop hamda kuchli ta'sir qiluvchi moddalarga qarshi kurashish borasidagi bilim va ko'nikmalarini baholash, oliy ta'lim tashkilotlarida giyohvandlikning zararli oqibatlari to'g'risidagi tushunchalarni keng targ'ib etish, shuningdek, ijodiy faoliyat orqali sog'lom turmush tarzini ommalashtirishdan iborat.

4. **Ko'rik-tanlovning vazifalari** quyidagilardan iborat:

talabalarda giyohvandlikning ijtimoiy, tibbiy, huquqiy hamda ma'naviy oqibatlari to'g'risidagi bilimlarni chuqurlashtirish;

talaba-yoshlar o'rtasida sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhitni shakllantirish va mustahkamlash, ularni turli zararli odatlar ta'siriga tushib qolishining oldini olish;

sog'lom turmush tarzini targ'ib etish bo'yicha ijodiy va ilmiy-amaliy yondashuvlarni rag'batlantirish;

yosh avlodni har tomonlama barkamol, yuksak ma'naviyatli, sog'lom dunyoqarash hamda Vataniga sadoqat ruhida tarbiyalash;

talabalarga o'z iqtidorini namoyon etishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, mustaqil va erkin fikrlaydigan iste'dodli yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash;

talabalarning ijodiy ishlarini keng jamoatchilikka yetkazish va targ'ib qilish.

III. Ko'rik-tanlovni o'tkazish tartibi, bosqichlari va muddatlari

5. Ko'rik-tanlovni tashkil etish va o'tkazish uchun buyruqning 1-ilovasi bilan tasdiqlangan Respublika tashkiliy ishchi guruhi a'zolari hamda hududlardagi oliy

ta'lim tashkilotlarining Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektorlari mas'ul etib belgilanadi.

6. Ko'rik-tanlovda jamoalar tarkibi 10 nafar ishtirokchidan iborat tarkibda shakllantiriladi.

7. Har bir jamoa oliy ta'lim tashkiloti rektori (direktori) buyrug'i asosida shakllantiriladi hamda jamoaga rahbar (murabbiy) birlashtiriladi. Jamoa rahbari oliy ta'lim tashkilotining professor-o'qituvchilar yoki xodimlari orasidan belgilanadi.

8. Ko'rik-tanlovning barcha bosqichlarida ishtirokchilarni xolis va shaffof baholashni ta'minlash maqsadida tashkiliy ishchi guruh tomonidan kamida yetti nafar malakali mutaxassislaridan iborat Hakamlar hay'ati shakllantiriladi.

9. Ko'rik-tanlov **uch** (oliy ta'lim tashkiloti, hududiy va respublika) **bosqichlari** o'tkaziladi:

oliy ta'lim tashkiloti bosqichi – fakultet (yo'nalish)lar jamoalari o'rtasida joriy yil **may oyining birinchi o'n kunligida** o'tkaziladi;

hududiy bosqich – oliy ta'lim tashkiloti bosqichi g'olib jamoalari o'rtasida joriy yil **may oyining ikkinchi o'n kunligida** o'tkaziladi;

respublika bosqichi – hududiy bosqichda 1-, 2-, 3-o'rinlarni egallagan jamoalar o'rtasida joriy yil **iyun oyining birinchi o'n kunligida** o'tkaziladi.

10. Ko'rik-tanlovning hududiy bosqichini o'tkazish bo'yicha mas'ul oliy ta'lim tashkilotlari Vazirlikning xati asosida belgilanadi.

11. Ko'rik-tanlovning birinchi va ikkinchi-bosqichlari yakunlariga ko'ra, Hakamlar hay'ati xulosasi asosida har bir bosqichda faqat bittadan jamoaga keyingi bosqichda ishtirok etish uchun yo'llanma beriladi.

IV. Ko'rik-tanlov shartlari va baholash mezonlari

12. Ko'rik-tanlov quyidagi to'rtta shart asosida o'tkaziladi:

1-shart. "Insho yozish" – har bir jamoaning bir nafar vakili tomonidan Nizomga ilova qilingan mavzular doirasida o'zbek tilida (*zaruriyatga ko'ra rus va ingliz tillarida*) insho yoziladi.

2-shart. "Rasm chizish" – jamoa a'zolari tomonidan oldindan tayyorlangan, mavzuga oid faqat qo'lda chizilgan (moybo'yoq, guash, akvarel, grafika, qalamtasvir va boshqa an'anaviy texnikalarda bajarilgan) badiiy ishlar taqdim etiladi. Rasm o'lchami – A2 formati (420 × 594 mm). Har bir rasimga muallifning F.I.Sh., oliy ta'lim tashkiloti nomi, ish nomi hamda 100 so'zgacha bo'lgan qisqacha tavsif ilova qilinadi. Zaruratga ko'ra, jamoaning bir nafar a'zosi ijodiy ishni og'zaki ta'riflab beradi.

3-shart. “Qisqa videoroliklar” – jamoa a’zolari tomonidan oldindan tayyorlangan, giyohvandlikka qarshi kurashish hamda sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etishga qaratilgan qisqa metrajli videoroliklar taqdim etiladi. Videorolik davomiyligi 1 (bir) daqiqadan 3 (uch) daqiqagacha bo‘lishi, MP4 formatida, HD sifatda (kamida 1920×1080) tayyorlanishi lozim. Videorolik talabalarning o‘zi tomonidan tayyorlangan bo‘lishi shart. Qonun bilan himoyalangan musiqa, tasvir va boshqa materiallardan ruxsatsiz foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi.

4-shart. “Sahna ko‘rinishi” – jamoa tomonidan giyohvandlikka qarshi kurashish va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etishga bag‘ishlangan sahna ko‘rinishlari, miniatyuralar yoki ijodiy inssenirovkalar namoyish etiladi. Chiqish davomiyligi 15 (o‘n besh) daqiqagacha bo‘lib, sahna chiqishi jamoaviy tarzda ijro etiladi.

13. Ko‘rik-tanlovning **1-sharti** (“Insho yozish”) quyidagi mezonlar asosida 100 ballik tizimda baholanadi:

imloviy savodxonlik, so‘z boyligi va uslubiy mahorat – 25 ball;

mavzuning to‘liq va mazmunan ochib berilganligi – 25 ball;

mavzuga oid dolzarb muammolar hamda ularning yechimlari bo‘yicha asoslangan takliflarning mavjudligi – 25 ball;

amalga oshirilayotgan islohotlarga nisbatan shaxsiy munosabat va xulosaviy fikrlarning mavjudligi hamda ularni ifoda etish mahorati – 25 ball.

14. Ko‘rik-tanlovning **2-sharti** (“Rasm chizish”) quyidagi mezonlar asosida 100 ballik tizimda baholanadi:

ijodiy ishning mavzuga mosligi, giyohvandlikning zararlarini aks ettirish darajasi hamda ijtimoiy ahamiyati – 25 ball;

ijodiy ishda asl g‘oyalarni ifodalash va zamonaviy san’at uslublaridan foydalanish darajasi – 25 ball;

ijodiy ishni bajarishda texnik mahorat, badiiy texnika mukammalligi va detallar ustida ishlash darajasi – 25 ball;

ijodiy ishning estetik jozibadorligi, ranglar uyg‘unligi, kompozitsiya yaxlitligi vizual-ta’sirchanlik darajasi – 25 ball.

ijodiy ishning estetik jozibadorligi, ranglar uyg‘unligi, kompozitsiya yaxlitligi hamda vizual-ta’sirchanlik darajasi – 25 ball.

15. Ko‘rik-tanlovning **3-sharti** (“Qisqa videorolik”) quyidagi mezonlar asosida 100 ballik tizimda baholanadi::

mavzuga muvofiqligi – 33 ball;

ijodiy yondashuv (*g‘oyaning yangiligi va originalligi*) – 34 ball;

estetik sifati va badiiy ifoda vositalaridan foydalanish darajasi – 33 ball.

16. Ko‘rik-tanlovning **4-sharti** (“Sahna ko‘rinishi”) bo‘yicha baholash mezonlari sahna asarining badiiy-g‘oyaviy talqini, sahna bezagi, musiqiy ifodasi va ijrochilarning mahorat darajasini inobatga olgan holda Hakamlar hay‘ati tomonidan belgilanadi va 100 ballik tizim asosida baholanadi.

V. Ko‘rik-tanlovda ishtirok etish tartibi

17. Ko‘rik-tanlovda ishtirok etuvchi jamoalar tomonidan Tashkiliy ishchi guruhga quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

oliy ta‘lim tashkilotining ko‘rik-tanlovda ishtirok etish to‘g‘risidagi rasmiy xati;

jamoani shakllantirish haqidagi rektor (direktor) buyrug‘ining nusxasi;

belgilangan namunadagi ariza (mazkur Nizomning 2-ilovasiga muvofiq);

jamo a‘zolari ro‘yxati (*F.I.Sh., fakultet, kurs, ta‘lim yo‘nalishi, pasport ma‘lumotlari*);

har bir ishtirokchi bo‘yicha ma‘lumotnoma (qisqacha tarjimai hol).

VI. Mualliflik huquqlari

18. Ko‘rik-tanlovda taqdim etilgan ijodiy ish(lar)da mualliflik huquqlari buzilgan taqdirda, buning uchun mazkur ishni taqdim etgan muallif (*yoki mualliflar jamoasi*) javobgar hisoblanadi.

19. Ijodiy ishlarni ko‘rik-tanlovga taqdim etish orqali muallif (*yoki mualliflar jamoasi*) tashkilotchilarga ushbu ishlardan notijorat maqsadlarda foydalanish, jumladan, ularni internet tarmog‘ida, ommaviy axborot vositalarida, teledasturlarda joylashtirish hamda targ‘ibot materiallarida qo‘llash huquqini beradi.

20. Ko‘rik-tanlov ishtirokchisi (*yoki jamoa*) taqdim etilgan ijodiy ish(lar)ning muallifi ekanligini, shuningdek, ushbu ishlar orqali uchinchi shaxslarning intellektual mulk huquqlari buzilmaganligini kafolatlaydi. Mazkur talab buzilgan taqdirda, ishtirokchi (*yoki jamoa*) tashkilotchilarga yetkazilgan barcha zararlarni hamda huquqlarini himoya qilish bilan bog‘liq xarajatlarni qoplash majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

21. Ko‘rik-tanlov ishtirokchisi (*yoki jamoa*) ijodiy ish(lar)i baholash jarayonida oshkora namoyish etilishi va muhokama qilinishiga rozilik bildiradi.

22. Tashkilotchilar ko‘rik-tanlovga taqdim etilgan ijodiy ish(lar)dan tanlovni yoritish, to‘plamlar tayyorlash targ‘ibot materiallarini yaratish va ularni tarqatish maqsadida foydalanish huquqiga ega.

VII. Ko‘rik-tanlov g‘oliblarini taqdirlash

23. Ko‘rik-tanlovning oliy ta‘lim tashkiloti bosqichida 1-o‘rinni egallagan jamoa a‘zolari oliy ta‘lim tashkiloti rahbari tomonidan diplom hamda esdalik sovg‘alari bilan taqdirlanadi.

24. Ko‘rik-tanlovning hududiy bosqichida 1-o‘rinni egallagan jamoa a‘zolari mas‘ul oliy ta‘lim tashkiloti rektori (direktori) tomonidan diplom hamda qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlanadi.

25. Ko‘rik-tanlovning respublika bosqichida 1-, 2- va 3-o‘rinlarni egallagan jamoalar Termiz iqtisodiyot va servis universiteti mablag‘lari hisobidan quyidagi miqdorlarda pul mukofotlari, shuningdek, diplom va qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlanadi:

1-o‘rin – 200 000 000 (ikki yuz million) so‘m;

2-o‘rin – 150 000 000 (bir yuz ellik million) so‘m;

3-o‘rin – 100 000 000 (yuz million) so‘m;

3-o‘rin – 100 000 000 (yuz million) so‘m.

26. Pul mukofotlari g‘olib jamoa a‘zolari o‘rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi.

VIII. Yakuniy qoidalar

27. Davlat va nodavlat tashkilotlari ko‘rik-tanlovni tashkil etish va o‘tkazishda homiylik asosida ishtirok etishlari mumkin.

28. Mazkur Nizom talablariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish Respublika tashkiliy ishchi guruhi zimmasiga yuklatiladi.

29. Hakamlar hay‘ati qaroridan norozi bo‘lgan taqdirda, manfaatdor shaxs qaror nusxasi berilgan kundan e‘tiboran uch ish kuni Respublika tashkiliy ishchi guruhiga apellyatsiya tartibida murojaat qilish kiritish huquqiga ega.

Respublika tashkiliy ishchi guruhi murojaatni o‘n ish kuni ichida ko‘rib chiqadi hamda quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

shikoyatni qanoatlantirishni rad etish va Hakamlar hay‘atining qarorini o‘zgarishsiz qoldirish;

shikoyatni qanoatlantirish va Hakamlar hay‘ati qarorini qisman yoki to‘liq bekor qilish hamda yangi qaror qabul qilish.

Apellyatsiya tartibida murojaatni ko‘rib chiqish natijalari bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

30. Ko‘rik-tanlov doirasida saralangan eng yaxshi ijodiy ishlar Vazirlik hamda oliy ta‘lim tashkilotlarining rasmiy veb-saytlari va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida yoritilishi mumkin.

**Ko'rik-tanlovning 1-shart bo'yicha tavsiya etiladigan mavzular
RO'YXATI**

1. Giyohvandlik – zamonaviy jamiyatning dolzarb muammosi sifatida: sabablari va oqibatlari.
2. Sog'lom avlod – kelajak poydevori.
3. Yoshlar ma'naviyatini shakllantirish orqali giyohvandlikka qarshi profilaktika.
4. Sog'lom turmush tarzi – shaxs kamoloti va muvaffaqiyatining muhim omili.
5. Oilaning giyohvandlikka qarshi profilaktikadagi o'rni va mas'uliyati.
6. Giyohvandlikning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari.
7. Sport va faol hayot tarzi – yoshlarni zararli odatlardan himoya qilish omili.
8. Raqamli muhitda yoshlar tarbiyasi va sog'lom turmush madaniyatini shakllantirish.
9. Giyohvandlikka qarshi kurashishda mahallaning o'rni.
10. Talaba-yoshlarning giyohvandlikka qarshi faol fuqarolik pozitsiyasi.

Izoh: Ishtirokchilar tomonidan yuqorida keltirilgan mavzulardan biri tanlanadi.

SGW4881

Nizomga 2-ilova**ARIZA**

“Yoshlar – giyohvandlikka qarshimiz!” respublika ko‘rik-tanlovida ishtirok etish uchun

_____ (oliy ta’lim tashkilotining to‘liq nomi)

talabalari jamoasi “Yoshlar – giyohvandlikka qarshimiz!” respublika ko‘rik-tanlovida ishtirok etishga ariza topshiradi.

Jamoa rahbari: _____

(F.I.Sh., lavozim, ilmiy unvon, aloqa telefoni)

Jamoa tarkibi (____ nafar talaba):

T/r	F.I.Sh.	Fakultet, kurs	Yo‘nalishi	Pasport ma‘lumotlari	Imzo
1					
2					
3					
4					
5					
6					
7					
8					
9					
10					

SGW4881

SGW4881

SGW4881

4881